

ASAR TAHLILINI QIYOSLASH METODI ORQALI TUSHUNTIRISH

Shukurboyeva Ozoda Nasriddin qizi

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

elektron manzil: o.shukurboyeva@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10253605>

Umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablariga bilim, malaka, ko‘nikma hamda kompetensiyani kiritadigan bo‘lsak, Kompetensiyaning ko‘nikma va malakadan asosiy farqi shundan iboratki, ko‘nikmada o‘rganilgan bilimni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish bo‘lsa, malaka o‘rganilgan bilim hamda ko‘nikmalarni notanish holatda qo‘llay olish qobiliyatini angladi. Kompetensiya esa bu ikki tushunchadan ham ustunlikka ega bo‘lib, u egallangan bilim, malaka, ko‘nikmalarni kundalik hayotda ham qo‘llay olish qobiliyatidir.

Adabiyot darslarida o‘qituvchining vazifasi esa o‘quvchida badiiy tahlil qilish layoqatini shakllantirish, bu orqali esa orqali mustaqil dunyoqarashni rivojlantirish, o‘quvchining ruhiy olamini tarbiyalash hamda egallagan bilimni kundalik hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Adabiyot darslarida ta‘limiy, tarbiyaviy maqsadlarni hamda kompetensiyaviy yondashuvlarni amalga oshirishda o‘zbek va jahon bolalar adabiyotini o‘zaro qiyoslab o‘rganish muhim ahamiyat kasb ketadi. Jumladan, bolalar yoshi va psixologiyasiga mos keluvchi quyidagi “Muzqaymoq”, “Do‘nan”, “Hellados”, “Oq kema” kabi asarlarning o‘ziga xos tomonlarini, o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarini o‘zaro qiyoslab, asarlar tahlilini amalga oshirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarda asarbadiiy asarga qiziqish uyg‘otadi. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarida yaratilgan qahramonlarning o‘xshash va farqli tomonlarini farqlashiga, tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga olib keladi. O‘quvchi bu metod orqali qalban badiiy tahlilni amalga oshiradi, ya‘ni asar qahramonlarini o‘zi bilan solishtiradi, shaxsiy xato va kamchiliklarini to‘g‘irlaydi.

1-chizma:

O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti namunasining qiyosiy metod orqali tahlili	Asar g‘oyasi va qahramonlarining o‘ziga xos tomonlari.
Odil Yoqubov “Muzqaymoq” hikoyasi 	– Asar bosh qahramoni 10yoshli bola (Odil, muallifning o‘zi). – Hikoya bola tilidan so‘zlanadi. – Asar voqealari Turkiston shahri bo‘lib o‘tadi. – Bosh qahramon sodda, o‘ynoqi, hayot tashvishlarini hali anglab yetmagan bola edi. – Sersurat, qalin kitoblarni tomosha qilishni yaxshi ko‘radi. – Ishonuvchan, o‘z navbatida g‘ururli (opasiga tintuv xodimlari soxta xushomad qilganda jahli chiqishi, otasini uydan olib ketayotganlarida opalaridek yig‘lamagani) – Qisqa fursatda, dadasi qamalgandan so‘ng ko‘p narsalarni, hatto hamma odam ham do‘st bo‘la olmasligini anglaydi. Dadasi juda ko‘p yaxshilik qilgan

qo'shni yigit, bolani tutib olib, haqoratlaydi. ("Qashqirdan tug'ilgan qashqircha")

–Asarda bolaning bolalarcha mas'uliyatsizligi ko'rinadi (grafinni sindirib qo'yganida, paradlarga ketib qolishida,)

–Dadasi qahri qattiq odam.

–Dadasi umrida o'z qo'llari bilan biror marta muzqaymoq olib bermagan.

–Bekinmachoq o'yinini o'ynaydi.

–Bola yolg'iz emas, onasi, opalari, ukalari va pochchasi bor.

–Asar sho'ro tuzumidagi oilalarning qiynalgan, azoblangan, haqqoniy qiyofasini va ruhiy holatini bola tilidan tasvirlab beradi.

Asarda juda ko'p o'xshatishlar uchraydi

Asar mazmunini ochishga yordam beruvchi o'xshatishlar:

–“Bekinmachoq o'ynaganda pichan tagida “jon saqlardik”

–“...bolaxona eshigiga otning kallasidek katta qulf osib qo'ygandilar”,

–“...opamlar bilan ukalarim xuddi kalxatlardan qo'rqgan jo'jalarday bir-birining pinjiga kirib olishgandi”,

–“...quduq yonidagi gujum panasida kimdir qoqqan qoziqday qaqqayib turardi”,

–“...va'zlarning aksariyati trotskiychilar va ularning “dum”larini fosh qilishga bag'ishlanardi”,

–“...xonadonimizga u bo'zchining mokisidek qatnardi”,

–“qashqirdan tug'ilgan qashqircha”,

–“...dadamlar ozod bo'ladi degan umid ojiz miltirab turgan shamday so'ngan”



Turob To'la. "Do'nan"
hikoyasi

- Asar bosh qahramoni Baxshilla, uning tilidan bolaligi so'zlanadi.
- Asar bobosining nevarasiga bolalik voqealarini so'zlab berishdan boshlanadi.
- Hikoya bolalar adabiyotining namunasi bo'lmish "Yetti zog'ora qissasi" tarkibidadir.
- Asar voqealari Turbat qishlog'ida bo'lib o'tadi.
- bosh qahramon hayvonlarni, jonivorlarni juda yaxshi ko'radi.
- Bola do'stiga juda sodiq, hatto u hayvon bo'lsa ham.
- Bola yolg'iz emas, buvisi, dadasi, onasi, akasi bor.
- Bolaning dadasi lafzi halol, oriyatli, elining urf-odatlariga sodiq.
- Asar sodda tilda yozilgan, oddiy so'zlashuv uslubiga moslashtirilgan. O'xshatishlar deyarli uchramaydi
- Asarda muommoning ko'tarilishiga qishloqning o'ziga xos urf-odatlari, akasini ukasining otini yoqtirmagani uchun alamdand otni ko'zga ko'rinar joyga bog'lab qo'ygani.
- Muommoga yechim otni mehmon tomonidan olib kelib tashlab ketilgani.



Nodar Dumbadze "Hellados"

- Asar bosh qahramoni Yanguli
- Yoshi 14 yosh.
- Asar voqealari Gruziyada bo'lib o'tadi. (bosh qahramon Venetsian ko'chasi chalbash daryosini bo'yida yashaydi).
- Hikoya voqealari Jamol tilidan bayon qilinadi.
- Yanguli– zo'ravon, mushtumzo'r, tarbiyasi bo'sh, maktabga bormagan bola bo'lsa ham, tabiatan nozik ko'ngli, mushohadaga moyil aql-u farosati bor.
- Faqat otasi bor, onasini eslolmaydi– go'dakligida olamdand o'tgan.
- Otasiga yordam berish maqsadida sut, ko'kat sotadi.
- Yanguli tug'ilgan yurtini, odamlarini, do'stlarini sevadi, Mida degan qizni yoqtiradi.
- Bosh qahramon asar voqealariga keskin burilish yasaydi. Asar so'nggida vafot etadi.
- Asarda ko'tarilgan muommo otasining o'z tug'ilgan yurtiga ketishi va Yangulini ham ketishga majburlashi
- Muommoga yechim Yangulining o'zini suvga tashlab, vatanda qolishi(o'lgan holatda bo'lsa ham)
- Asar qisqagina va sodda tilda yozilgan. Ortiqchaliklar uchramaydi.

	–Asarda “Poseydon” kemasi tilga olinadi.
 Chingiz Aytmatov “Oq kema”.	–Asar bosh qahramoni 7 yoshni to‘ldirib, 8 ga qadam qo‘ygan bola. –Bola ota-onasi tomonidan tashlab ketilgan. –Bosh qahramon hayotda mehr ko‘rmagan, uni bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilishi mumkin bo‘lgan kishisi yo‘q. Garchi atrofida xolasi, pochchasi, buvisi kabi insonlari bo‘lsa ham –Asar voqealari muallif tilidan bayon qilinadi. –Janri qissa –Voqealar Qoravultog‘ yonbag‘irlari, Issiqko‘l atroflarida sodir bo‘ladi. –Bola tabiatni, jonivorlarni juda sevadi. Bu ko‘rinishlar bolaning gullarga, toshlarga nom qo‘yishida va bug‘uga achinishida ko‘rinadi. –Bola bulutlarga qarab yotishni sevadi. –Juda mehribon, bolalarcha beg‘ubor. –Boshqalardan yashirincha yig‘laganda shiroljin o‘simligi uni pana qiladi. –Bosh qahramon asar voqealariga keskin burilish yasaydi. asar so‘nggida vafot etadi. –Qissada Oq kema tilga olinadi. Voqealar rivojida qatnashgan vositalardan biri. –Asarda ko‘plab ramziy obrazlar uchraydi: baliq, oq kema, ona bug‘u kabi...

Asarlar va asar qahramonlarining o‘xshash va farqli tomonlari qiyosi quyidagi jadvalda umumlashtirilgan va xulosalangan:

2-jadval

	 “Muzqaymoq”	 “Do‘nan”	 “Oq kema”	 “Hellados”
Ona mehriga zor (onasi yo‘q)			+	+
Hayvonlarni, tabiatni sevadi		+	+	
Kema obrazi uchraydi. Asarda muhim ahamiyatga			+	+

ega				
Bosh qahramon asar so'nggida vafot etadi.			+	+
Juda qiziquvchan	+		+	
Mehrga tashna			+	+
Otasi urf-odatlarga sodiq hamda qattiqqo'l	+	+		+
Asar voqealari qahramonlar tilidan so'zlanadi	+	+		+
Janri hikoya	+	+		+
do'stlari jonivorlar va jonsiz narsalar. Qahramon ular bilan sirlashadi.		+	+	
Ota diydoriga, uni bag'riga bosishga tashna bolalar	+		+	
Yolg'iz bola(aka-uka, opa-singillari yo'q)			+	+

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda hamda ularda umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini, adabiyotga oid kompetensiyalarni shakllantirishda, o'quvchilarning adabiy- estetik didini, ma'naviy-axloqiy dunyosini rivojlantirishda o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarini qiyoslab o'qitishning ahamiyati cheksizdir. Shuningdek, bu jarayonning yaxshi yo'lga qo'yilgani o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtiradi, ularda mustaqil hamda obrazli fikrlashga doir bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi.

References:

1. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017 yil 14 (774)-son, 230-modda. – 233
2. Ahmedov S, .Qosimov B, Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020 –272 b.
3. Husanboyeva Q. 5-sinfda "Kichkina shahzoda" ertak-qissasini o'rganish // Til va adabiyot ta'limi. –Toshkent, 2009. № 4. – 17-25-b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 352 b.
5. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 306 b.

6. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. I qism. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. –160 b.
7. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. –160 b.